

PSIXOLOGIK-XIZMATNI TASHKIL ETISHDA VA SINIF RAHBARLAR BILAN HAMKORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.

*Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 59– umumta'lim amaliyotchi – psixologi
Abdullayeva Nargizaxon Abdurahmonovna*

Annatsiya.

Ushbu maqolada psixologik-xizmatni tashkil etish bo'yicha 2019-yil 12-iyundagi 577-sonli qarorida belgilangan vazifalar. Ta'lim muassasalarida psixologik-xizmatni tashkil etishda psixolog va sinif rahbarlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish o'quvchilarning ijobiy sifatlarini shakllantirish va metodlardan foydalanish haqida ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: psixologiya, ta'lim, metod, shaxs, faollik, hamkorlik, qobiliyat, suhbat, kreativlik, pedagogika, adaptatsiya.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal rivojlanishi, mehnat bozoridagi raqobat va ish beruvchilarning zamonaviy talablari ortib borayotganligi sababli yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash muammosi dolzarbdir.

Bizga ma'lumki psixologik-xizmatni tashkil etish bo'yicha 2019-yil 12-iyundagi 577-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan o'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida belgilab qo'yilgan vazifalar bo'yicha tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son [qarori](#) ijrosini ta'minlash, shuningdek, umumiy o'rta va o'rta maxsus davlat ta'lim muassasalarida o'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash maqsadida:

Quyidagilar psixologik xizmatning asosiy vazifalari etib belgilangan:

ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini samarali va sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirish;

o'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida to'g'ri kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish;

turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni aniqlash,

ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish;

o'quvchilar ta'lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

iste'dodli va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rganish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

axborot-psixologik xurujlarning xavfi, Internet jahon axborot tarmog'ining salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;

pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta'minlash

Bugungi kunda maktab ta'limi jarayonida sinf rahbar va psixologning hamkorlikdagi o'rni haqida gaplashsak. Psixologik-xizmat yuzasini yaxshilash uchun avvalo sinf rahbar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim. Yuzaga kelayotgan muommolar uchun yechim topish osonlashadi boladagi harakterni tushunish va suhbat jarayonida bir muncha qulayliklar tug'diradi. Bolaning qobiliyati, fanlarga qiziqishi, o'qishi oilaviy sharoitlari haqida sinf rahbar ma'lumotlarga ega bo'ladi va ish samaradorligi oshadi. O'quvchi bilan sinf rahbar ham psixolog birgalikda ishlasa qo'llangan metodlar samara beradi. Bola o'quvchi shaxsiga 1908 xil harakter turi bor deb Tolstoy aytganiday harakter insonlarning qilayotgan xarakatlari hisoblanadi. Mana shu asosida bolaga kreativ yondashish unda ochilmagan qobiliyatlarni kashf etish muhim hisoblanadi. Rossiya psixologlari B.P.Teplov, A.G.Kovalev, Sharq mutaffakkirlaridan beruniy, Farobiy, ibn sinolar insonning imkoniyatlarini o'rganishga katta hissa qo'shganlar.

Barcha shaxslarda layoqat shakillangan bo'ladi lekin, buni takomillashgan qismigina qobiliyatga aylanadi. Bugungi kunda bizga ham qobiliyatli iste'dodli yoshlarni tarbiyalashda o'z hissamizni qo'shishdan mamnunmiz.

Psixologiya fani - inson ongini va inson miyasi turli vaziyatlarda o'zini qanday tutishini o'rganadi.

Psixologiya inson hayotining muhim tarkibiy qismidir, chunki bizning hayotimiz asab tizimini qo'zg'atadigan stress va tajribalarga to'la. Inson psixikasiga

ko'plab omillar ta'sir qiladi, birinchi navbatda bu yosh, chunki har qanday insonni hayoti davomida turli xil psixologik muammolar ta'qib qilinadi.

Psixologiya fani turlari

Psixologiyani ikki turga bo'lish mumkin: fundamental va amaliy. Fundamental psixologiya ko'rib chiqadigan asosiy jarayonlar - sezgi, idrok, e'tibor, xotira, tasavvur, fikrlash va nutq. Shuningdek, fundamental psixologiya aqliy xususiyatlar va ruhiy holatlarni o'rganadi.

Amaliy psixologiya - bu inson xulq-atvorining amaliy ma'nosini o'rganadigan fan. Agar siz ushbu fanni chuqur o'rgansangiz, u balog'at yoshi, ijtimoiy tafakkur va umuman, butun hayoti davomida inson bilan sodir bo'ladigan barcha psixologik o'zgarishlar kabi hodisalarni o'rganishini bilib olishingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M., Xolyigitova N. Psixologiya: O'quv qo'llanma - TDIU, 2014
2. Tulaganova G. K. Tarbiyasi qiyin o'smirlar. - T., 2005.
3. Umarov B.M., Psixologiya. Darslik- — Voris nashriyotil, Toshkent, 2012 y.
4. G'oziyev E.G. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. 2003. 27. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T.: -200